

REMARKA – DRAMATIK MATNNING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Gulhida Ikromova

FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya. Ushbu maqolada dramatik turning asosini tashkil qiluvchi remarkalarning o‘ziga xos belgilari, ularning dramatik asarni shakllantiruvchi boshqa birliklardan farqli jihatlari hamda mazkur birliklarning tilshunoslikda o‘rganilishi, dramatik matnni shakllantirishda remarkalarning o‘rni, rus tilshunosligida remarkalar tasnifiga doir tadqiqotlar mazmuni kabi masalalar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: remarka, subtitr, epigraf, interpozitiv remarkalar, propozitiv remarkalar, postpozitiv remarkalar, muallif izohi.

Abstract. In this article, I asked about issues such as the characteristics of remarks that form the basis of a dramatic genre, their differences from other units that form a dramatic work, and the study of these units in linguistics, the role of remarks in the formation of a dramatic text, the content of research on the classification of remarks in Russian linguistics. z is maintained.

Keywords: remark, subtitle, epigraph, interpositive remarks, propositional remarks, postpositive remarks, author's note.

Аннотация. В этой статье я задался такими вопросами, как характеристика реплик, составляющих основу драматического жанра, их отличия от других единиц, составляющих драматическое произведение, а также изучение этих единиц в языкоznании, роль реплик в формировании драматического текста сохраняется содержание исследований по классификации реплик в русском языкоznании.

Ключевые слова: ремарка, подзаголовок, эпиграф, интерпозитивные ремарки, пропозициональные ремарки, постпозитивные ремарки, авторское примечание.

Jahon tilshunosligida olib borilgan ayrim tadqiqotlarda remarka dramatik matnning ajralmas qismi sifatida baholanib, lingvistik nuqtai nazardan maqsadli ravishda o‘rganilgan. Xususan, A.V.Xijnyakning nomzodlik dissertatsiyasida dramatik matn elementlari va ular tizimida remarkanining o‘rni, F.Shiller dramalaridagi remarkalarning struktural, funksional-semantik tasnifi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Ma’lumki, dramatik turda muallif epik turdag'i kabi voqeа-hodisalarga erkin aralasha olmaydi, ayni shu xususiyatiga ko‘ra, dramaning bir butun asar sifatida o‘qilishida remarkanining o‘rni katta. Drama qahramonlarining fikrlari, his-tuyg‘ularini o‘quvchiga etkazishda muallif imkoniyati cheklangan bo‘lib, mazkur holatlar dramaturg tomonidan remarkalarda qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, remarkalar dramaturgiyada muallif “ovozi”ni etkazish vositalaridan biridir. Remarkalar drama rejissyoriga, aktyorlarga, shu bilan bir qatorda, kitobxonga bevosita ta’sir ko‘rsatish usuli vazifasini ham bajaradi, ular asar matnida muallif modalligini ifodalash vositasidir.

Remarka – fransuzcha izoh, ya’ni muallif izohi degan ma’noni bildiradi. Ma’lumki, remarkada asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko‘rinishi, qalb kechinmalari, so‘zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit, payt-o‘rin kabilar izohlanadi.

Ma’lumki, teatr san’atining rivojlanishi dramatik matnning asosiy birliklari hisoblangan remarka va replikaning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Teatr evolyusiyasida dramatik matnning asosiy komponenti hisoblangan dialog va monolog bir qancha o‘zgarishlarga uchradi. Dialog dramatik

matnning negizini tashkil qilgan bo‘lsa, monolog dramatik asar kulminatsiyasida asosiy o‘rinni egalladi. Mazkur birlklardan farqli ravishda, remarka dramaning tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan qism sifatida e’tirof etiladi. Bunga asosiy sabab, qadimgi an’anaviy dramatik matnlar tarkibiga remarkalarning kiritilmaganligidir. O‘rtta asrlar dramaturgiyasida dramalar, asosan, sahnada ijro etish maqsadida yaratilgan, dramaturglar, ko‘p hollarda, aktyor yoki rejissyor vazifasini bajargan va bevosita aktyorlarga sahananing o‘zida ko‘rsatma berib turgan.

Rus tilshunosligidagi remarka evolyutsiyasi bilan bog‘liq tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, XIX asr boshlariga kelib, remarka muallifning alohida ko‘rsatmasini ifodalovchi, qahramon xattiharakati, tashqi ko‘rinishi, voqealar sodir bo‘ladigan makon va zamonni tavsiflovchi birlik bo‘lib xizmat qila boshladi hamda dramatik matn komponenti sifatida asta-sekin rivojlna bordi.

Dramatik matnda remarkalarning o‘rni borasida olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, remarkaning keyingi rivojlanish bosqichida XIX asr realistik adabiyoti vakillari sanaladigan dramaturglar B.Shou hamda A.Chexovning hissasi katta bo‘lgan. Mazkur dramaturglar ijodida remarka yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi hamda dramatik matnning ajralmas qismi sifatida shakllana bordi. Ya’ni, “Teatr san’atining jadal rivojlanish jarayonida remarkalar teatrni tubdan o‘zgartirdi: dramaturgiyada matnni epiklashtirish tendensiyasi kuchaydi. Natijada, nasr va dramaturgiya o‘rtasidagi farqlar sezilarli ravishda kamaydi hamda dramatik asarlar nasriy asarlarga yaqin ko‘rinishga keldi. Dramatik matn va remarka strukturasidagi mazkur o‘zgarishlar ularni dramaturgiya va dramatik asarning ajralmas qismiga aylantirdi.

Remarkaning asosiy xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ishlarda ko‘rsatilishicha, remarka – asar qahramonlari replikasiga kiritilmagan, sintaktik jihatdan monolog va dialog hamda replikadan farq qiladigan, drama qahramonlari harakat va holatining qisqacha tavsifini o‘z ichiga olgan, personajlar psixologiyasini ifodalash uchun drama matniga kiritilgan muallif izohlaridir.

Dramalarda bosh qahramonning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o‘rni katta. V.G.Belinskiy ta’kidlaganidek, remarka muallifning asarda o‘zini ifoda etish shakllaridan biridir. Ayni shu jihatdan, jahon tilshunosligida dramatik turning asosini tashkil qiluvchi remarkalarga matn tipi sifatida qaralib, uning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish qator tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Shu asosda, remarkalarni filologik tadqiqotlarning an’anaviy obyekti sifatida baholashimiz mumkin.

Rus tilshunosligida muallif remarkalari tasnifiga bag‘ishlangan adabiyotlarda remarkaning bir necha mezonlarga asoslangan holda guruhlarga ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin: 1) matndagi joylashuvi bo‘yicha; 2) syujetni shakllantirishdagi roli bo‘yicha; 3) dramatik matndagi funksiyasi bo‘yicha; 4) grammatik xususiyatlari bo‘yicha; 4) struktural tuzilishi bo‘yicha; 5) kommunikativ vazifa bajarishiga ko‘ra. L.A.Shuvalova remarkalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: voqeа joyini tasvirlovchi reamarkalar; qahramon tashqi ko‘rinishi, xarakteri, xattiharakatini tasvirlovchi remarkalar; izoh ma’nosida qo‘llanilgan remarkalar; personaj monologi bilan parallel ravishda sodir bo‘ladigan voqeа-hodisalarni tasvirlash uchun ishlatiladigan remarkalar. A.N.Zorin remarkalarni formal belgisiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratadi: nominativ remarkalar (bularga sarlavha, subtitr, epigraf kabilar kiradi); afisha xarakteridagi remarkalar (bularga dramada ishtirok etuvchi personajlar ro‘yxati, ularning tashqi ko‘rinishi, yoshi, kasbi kabilarni izohlovchi remarkalar kiradi); propozitiv remarkalar (drama sodir bo‘luvchi sahna, manzara, vaqtini izohlovchi remarkalar; interpozitiv remarkalar (sahna ichida, personajlar harakati o‘rtasida va personajning replikasi vaqtida sodir bo‘ladigan voqeа-hodisalarni ifodalovchi remarkalar); postpozitiv remarkalar (sahna asarining yakuniy qismini tasvirlovchi remarkalar).

Turli tasniflar tahlili shuni ko‘rsatadiki, remarkalar dramatik asarlarda yordamchi birlik bo‘lib xizmat qilibgina qolmay, dramatik matnning ajralmas qismi sifatida mustaqil matn ko‘rinishidagi muallif maqsadini ifodalovchi vosita sanaladi.

REFERENCES

1. Зорин А.Н. Поэтика ремарки в русской драматургии XVIII—XIX веков : Автореферат диссертации ... доктора филологических наук / А. Н. Зорин. — Саратов, 2010; Иванова Т. Г. Ремарка как средство передачи авторского замысла // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. Серия «Общественные и гуманитарные науки». — 2007. № 27. — С. 45—49; Тюпа В. И. Драматургия как тип высказывания [Электронный ресурс] // Новый филологический вестник. — 2010. — № 3. — Режим доступа :http://slovorggu.ru/nfv2010_3_14_pdf/01Tiupa.pdf; Семьян Т. Ф. Перформативный характер текста современной отечественной драмы // Уральский филологический вестник. Серия «Русская литература XX—XXI веков : направления и течения». — 2012. — № 1. — С. 167—177; Сперантов В. В. Поэтика ремарки в русской трагедии XVIII — начала XIX вв. (к типологии литературных направлений) // Philologica : Двуязычный журнал по русской и теоретической филологии / под ред. И. А. Пильщикова и М. И. Шапира. — 1998. — № 11/13. — С. 9—47.
2. Хижняк А.Н. Ремарка в драмах Ф. Шиллера: локально-структурный, функционально-семантический и переводческий аспекты: ... канд. филол. наук: –Ростов на-Дону, 2006.
3. Жалилов Б. Ўзбек драматургияси поетикаси масалалари. – Т., 1984.
4. Лимановская. И. Б. Статус и роль авторских ремарок в дискурсе англоязычной драмы (на материале англоязычной драмы 16-18 веков) // Вестник СамГУ. - 2008. - № 1. - С. 371.
5. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. –Т., 1983.
6. Беркнер С.С. Об орган v bv ввизации драматургического текста / С.С.Беркнер // Текстообразующие свойства слова и предложения. – СПб., 2001. – С. 11.
7. Бен Г.Е. Ремарка / Г.Е.Бен // Краткая литературная энциклопедия : в 9 т. – М., 1991. – Т. 6. – С. 250.
8. Антипин Л.И. Эффект присутствия автора и отстранение в реалистической драме / Л.И.Антипин // Теория реализма в средней школе. – Иркутск, 1999; Бердникова Л.П. Прагматика авторских ремарок в тексте английской пьесы / Л.П.Бердникова, М.Б.Уманская // Вопросы романо-германской и русской филологии : сб. науч. статей. – Пятигорск, 2000; Fletcher A.J. Drama and the Performing / A.J.Fletcher. – Cambridge, 2001; Styan J.L. Drama : a Guide to the Study of Plays / J.L.Styan. – New York, 2000.
9. Бояринцева Г.С. Лингвистический анализ художественного текста / Г.С.Бояринцева. – Саратов, 1990; Николина Н.А. Семантика и прагматика формвремени в авторских ремарках / Н.А.Николина // Семантика и прагматика языковых единиц. – Калуга, 2003; Woodbridge H.E. G.B.Shaw – Creative Artist / H.E.Woodbridge. – Carbondale, 2003; Ермакова Е.В. Подтекст и языковые средства его формирования в драматическом тексте (на материале современной английской драмы) / Е.В.Ермакова. – Саратов, 1996.
10. Шувалова Л.А. Ремарка в драме / Л.А.Шувалова. – СПб., 1999. – С. 394.
11. Антипин Л.И. Эффект присутствия автора и отстранение в реалистической драме / Л.И.Антипин // Теория реализма в средней школе. – Иркутск, 1999; Fletcher A.J. Drama and the Performing / A.J.Fletcher. – Cambridge, 2001; Styan J.L. Drama : a Guide to the Study of Plays / J L.Styan. – New York, 2000; Бояринцева Г.С. Лингвистический анализ художественного текста / Г.С.Бояринцева. – Саратов, 1990; Compton L. Shaw the Dramatist / L. Compton. –London, 1993; Romm A.S. Show, the Theorist / A.S.Romm. – Liverpool, 1999; Пирсон Х. Б. Шоу / Х.Пирсон. – М., 1992; Закарешвили М.К. Семантика

- и форма сценической ремарки в английской пьесе / М.К.Закарешвили. – Тбилиси, 1990;
Покровская Е.А. Эллипсис авторской ремарки при прямой речи как экспрессивное
средство современной художественной прозы / Е.А.Покровская // Проблемы
экспрессивной стилистики. – Ростов н/Д, 1992. – Вып. 2.
12. Шувалова Л.А. Ремарка в драме / Л.А.Шувалова. – СПб., 1999. – С. 394.
13. Зорин А.Н. Поэтика ремарки в русской драматургии XVIII—XIX веков : Автореферат
диссертации ... доктора филологических наук / А. Н. Зорин. — Саратов, 2010.